



UDK: 316.752:164.05

Xakim TO'XTAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, DSc
E-mail: tuxtayevxakim0@gmail.com,

ToshDTU professori, f.f.d N.Nishanova taqrizi asosida

"THE SPHERE OF VALUES" AND "AXIOLOGICAL PATTERNS": A SOCIO-AXIOLOGICAL ANALYSIS

Annotation

The article examines the content and essence of the concepts of "values" and "laws of axiology", the objectivity of values, the foundations of the laws of axiology, as well as the analysis of the laws of the sphere of values.

Key words: Axiological laws, axiological processes, universal human values, value sphere, objectivity of values, value system, domain of values, human self-esteem.

"СФЕРА ЦЕННОСТЕЙ" И "ЗАКОНОМЕРНОСТИ АКСИОЛОГИИ": СОЦИАЛЬНО-АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье рассматриваются сущность и содержание понятий "сфера ценностей" и "закономерности аксиологии," анализируются объективность ценностей, основы законов аксиологии и закономерности сферы ценностей.

Ключевые слова: Аксиологические законы, аксиологические процессы, общечеловеческие ценности, сфера ценностей, объективность ценностей, система ценностей, сфера ценностей, самооценка человека.

"QADRIYATLAR SOHASI" VA "AKSILOGIYA QONUNIYATLARI": IJTIMOIIY-AKSILOGIK TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada, «qadriyatlar sohasi», «aksiologiya qonuniyatlari» tushunchalari mazmun-mohiyati, qadriyatlarining obyektivligi, aksiologiya qonunlarining asoslar hamda qadriyatlar sohasining qonunlari tahliliga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Aksiologik qonunlar, aksiologik jarayonlar, umuminsoniy qadriyatlar, qadriyatlar sohasi, qadriyatlarining obyektivligi, qadriyatlar tizimi, qadriyatlar sohasi insonning o'zini o'zi baholashi.

Kirish. Zamonaviy dunyoda qadriyatlar tanazzuliga sabab bo'layotgan muhim omillardan biri, global manfaatlar to'qnashuvi insoniyatni jiddiy tashvishga solmoqda. Aynan, qadriyatlar inqirozi insonparvarlik, tinchlikparvarlik, millatlararo totuvlik, erkinlik kabi umumbashariy tamoyillarning baholanishiga sabab bo'layotgan aksiologik qonuniyatlarining yangi ilmiy-amaliy jihatlari, dunyoning nufuzli universitetlarida, ilmiy tadqiqot institutlaridagi ilmiy markazlarida, G'arb va Sharq madaniyati qadriyatlar transformatsiyasining jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatiga, aksiologik qonunlar nazariyasi va amaliyotining yangilanishi uning ratsional hamda konstruktiv jihatlari o'rganishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Shuning bilan bir qatorda, zamonaviy dunyoda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini asrab-avaylash, aksiologiya sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotlarda kreativ va ta'sirchan usullarni qo'llash, aksiologik jarayonlarni muttasil ilmiy monitoring va prognozlash, umuminsoniy qadriyatlar asosida millatlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik fazilatlarini mustahkamlash, aksiologik jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlar sohasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillar davomida milliy va umuminsoniy qadriyatlar talabiga mos jamiyat qurish muhim hisoblanadi. Bu borada «Yuksal ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir»[1]. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining negizida «Inson qadri uchun» degan ulug'vor g'oyani amalga oshirilishi, shuningdek, 2022-yilni «Inson qadri ulug'lash va faol mahalla yili», 2023-yilni «Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili», 2024-yilni «Yoshlar

va biznesni qo'llab-quvvatlash yili», 2026-yilni «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili» deb nomlanishi vatanimizda yashayotgan har bir inson qadri ulug'lash, uning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Inson qadri ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamizdir.»[2] Ayni paytda, O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga o'tishning aksiologik masalalari hamda uning bugungi amaliyot bilan uzviy bog'liqlik dialektikasini chuqur va har tomonlama o'rganish vazifalari ham dolzarblashib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon ilm-fanida «qadriyatlar sohasi», «aksiologiya qonuniyatlari» tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, qator ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Qadriyatlar sohasi va qadriyatlarining obyektivligi haqidagi fikrlarga nisbatan O.Gessenning qarashlari o'ziga xos. Uning fikricha, «asosan dunyo tarixida, insoniyat xayotida juda ko'p g'ayrioddiy va maqsadlarning turfa xilligidan farqli o'laroq, insonlarning xoxish va ehtiyojlariga bo'ysunmaydigan, aniq vazifa atrofida har bir avlodni birlashtirishga, maqsad sari intilishga va bu istaklarni amaliy bo'lishga majbur qiladigan qadriyatlar mavjud bo'lib, ular har qanday sivilizatsiya qadriyatlarining asosiy mezonini tashkil qiladi». O.Gessenning «obyektiv, doimiy qadriyatlar» bilan «tarixiy jarayonda vujudga keladigan ba'zi qadriyatlar» o'rtasida farq bor, tarixiy jarayonni uzluksizligi obyektiv qadriyatlarini o'tmishdan kelajakka, avloddan-avlodga meros qolishi orqali amalga oshadi», degan xulosalari ham bor. P.Chijovskiyning bu xususidagi fikrlari sal boshqaroq bo'lib, uningcha «Insonning vazifasi o'zini o'rab turgan olam, narsa va

hodosalar qadrini anglab olishga intilishdan, shu qadriyatlarga asoslanib yashashdan iboratdir»[3].

A.Meynong esa qadriyatlar xususida ko'plab izlanishlar olib borgan va u inson his-tuyg'ulari qadriyatlarni shakllanishiga asos bo'la oladi, degan xulosaga kelgan. Olimning fikricha, «insonda yaxshilik tuyg'usi kuchli bo'lsa - yaxshilik, nafosat tuyg'usi ustun bo'lsa - go'zallik, odillikdan - adolat, yovuzlik tuyg'usidan jinoyat va razolat tug'ulishi mumkin»[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Fan tarixida «qadriyatlar sohasi», «aksiologiya qonuniyatlari» tushunchalariga doir ayrim fikr va qarashlar uchraydi. Fikr va qarashlardagi xilma-xillik tabiiyki, Sharq va G'arbning o'ziga xos jihatlariga doir qimmatli mulohazalar uchraydi. Aytish kerakki, biri ikkinchisidan kelib chiqadigan, bir birini taqozo etadigan bu tushunchalarni chalkashtirmaslik, bir ma'noda qo'llash mumkin emas. «Qadriyatlar sohasi» va «aksiologiya qonuniyatlari» tushunchalarini umumiy, mavhum atama sifatida baholamaslik kerak. Sababi, har qanday sohada bo'lganidek, aksiologiyada ham boshqalarda uchramaydigan xos jihatlar mavjud, albatta.

Tahlil va natijalar. Jamiyatdagi qadriyatlar tizimini tashkil qiladigan turli jihat va ma'naviy omillar beqiyos ahamiyatga ega. Sohada o'zaro mutanosiblik, jamoa o'rtaqidagi muayyan munosabatlar bilan jamiyat ijtimoiy qurilishidagi mustahkam bog'liqlik asosida yuzaga keladi. Misol uchun, qadriyatlar inson va jamiyat yashab turgan davrdagi voqeeliklar bilan bog'liqdir. Qadriyatshunoslik qonuniyatlari esa sanalganlarning har biri uchun tayanch mohiyat hisoblanib, bu yo'nalishdagi jarayonlar tadrijiga va mazmuniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir o'tkazadi.

«Qadriyatlar sohasi» tushunchasi, ijtimoiy hayotning bir necha yo'nalishlarga bog'langan bo'lib, turli sohalarida xilma-xil ma'nolarni ifodalaydigan tushuncha sifatida namoyon bo'lsa, ilmiylik asosidagi yondashuvlarda esa bu tushuncha uzviy xarakterdagi subyektlar tashkil qiladigan tizim sifatida qabul qilinadi.

«Qadriyatlar sohasi» va «Aksiologiya qonuniyatlari» tushunchalari bir-biriga qarshi qo'yilmasligi va ularni alohida-alohida o'rganish noto'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Metodologik jihatdan qaraganda, «jamiyat a'zolarining umumiy maqsadlariga mos keladigan totuvlikni ta'minlash asosiy ahamiyatga ega. Har bir jamiyatning o'z qadriyatlarini boyitishda avvalo moddiy, qolaversa ma'naviy hayot sohalariga har tomonlama munosib aksiologik tamoyillarni diqqat markazida tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi»[4].

Biz tadqiq etayotgan, tayanch tushunchalardan biri bo'lgan «Aksiologiya qonuniyatlari» atamasining haqiqiy mohiyati muayyan jamiyat rivoji bilan hamohanglikda yuzaga keladigan, qator umumiy jihatlar bilan birga ko'plab o'ziga xosliklarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar omilining muttasil va takrorlanib turuvchi jarayonini, uning jamiyat va insonga doimiy ta'sirini anglatadi. Bu ta'rifda qadriyatli omillar bilan birga hayotning har qaysi yo'nalishdagi insoniy faoliyat ham nazarda tutilgan.

«Aksiologiya qonunlarining asoslarini, ma'naviy va moddiy jihatlarining uyg'unligi, ijtimoiy voqelik bilan dialektik bog'liqligi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorligi tashkil etadi»[5].

Qadriyatlar sohasining qonunlari tahliliga e'tibor qaratsak: birinchidan, aksiologiya qonunlarida ma'naviy va moddiy jihatlarining uyg'unligi qonuni. Adabiyotlarda ma'naviylik va moddiylikning qaysisi ustuvorligi xususida juda ko'plab fikrlar, bahslarga duch kelamiz. Kimlardir ma'naviy qadriyatlarini, kimdir inson ruhiyatini, boshqasi moddiy hayotni birlamchi deb biladi; ikkinchidan, aksiologiya qonunlarining ijtimoiy voqelik bilan dialektik bog'liqligi qonuni. Inson va jamiyat hayotini qadriyatlarisiz tasavvur qilish mumkin emasligi singari inson va jamiyatsiz qadriyat

ham mavjud bo'la olmaydi. Mos ravishda jamiyatdagi o'zgarishlar qadriyatlarga, qadriyatlar borasidagi yangiliklar jamiyatga bevosita ta'sirini o'tkazadi; uchunchidan, aksiologiya qonunlari namoyon bo'lishini jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorligi qonuni. Aksiologik hodisalarning rivojlanish jarayoni tarixiylikdan zamonaviylikka, inkor, vorislik, yangilanishning davomiylikini ifodalaydi. Bu jarayonda shakllangan qadriyatlardan butunlay voz kechilmaydi, balki, yangi zamon talab ehtiyojlariga mos, yangicha dunyoqarash mahsuli bo'lgan yangi qadriyatlar tizimi dunyoga keladi.

Jamiyatdagi qadriyatlar ba'zan ijtimoiy o'zgarishlardan biroz orqada qolishi yoki aksincha, oldinga o'zib ketishi kamyob hodisa bo'lib, yuqoridagi uchta qonunlarning mavjudligini yo'qqa chiqara olmaydi. Bu esa qadriyatlarining ijtimoiy taraqqiyot bilan mustahkam bog'liqligi tamoyilining tub mohiyatini belgilaydi.

O'z navbatida qadriyatlarining o'zi ham hayotning barcha yo'nalishlaridagi ta'sirini saqlab qoladi. Bu jihatdan, «aksiologiya qonuniyatlari jamiyat hayotining turli sohalarini xususiyatlari bilan uzviy aloqadorlikda shakllanadi va amal qiladi».[5] Shu bois, ma'naviy hayotga xos bo'lgan o'zaro harakat shaxslararo munosabatlarga asoslanadi. Aksiologik yondashuv narsa ma'naviy hayotda yaratilgan hodisalar tahlilida aksiologik qonuniyatlari mukammal bo'lsagina, mavjud olamga shunchalik munosib bo'la oladi. Ayni shu omil «qadriyatlar sohasi» va «aksiologiya qonuniyatlari» tushunchalarining mohiyatini ijtimoiy-aksiologik jihatdan ifodalaydi. Inson kun sayin o'zining hayotga, umri mazmuniga bo'lgan yondashuvini boyitib, oldiga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish davomida hayotiy qadriyatlarini yuksaltirib boradi va shu asnoda o'z «men»ini topadi, o'z ma'naviy dunyosining haqiqiy subyektiga aylanadi.

Qadriyatlar sohasi insonning o'zini o'zi baholashi, maqsad, intilishi va hayotga munosabatidan kelib chiqadi. Har bir davlatdagi jamiyat qadriyatlarini bilan aksiologik faoliyat o'zaro bog'liq bo'lib, ular bir-birini ajralmagan holda taqozo qiladi. YA'ni jamiyatdagi qadriyatlar sohasi ko'plab ijtimoiy-aksiologik mezonlar majmuasi sifatida yuzaga keladi. «Aksiologiya qonuniyatlari jamiyat va inson hayotidagi eng yuksak ma'naviy mezonlar, insoniy qadriyatlar hisosida hisoblanadi. Ular ma'naviy va ruhiy jarayonlar asosida vujudga keladi. O'z navbatida, insonlarda ma'naviy ehtiyojlar tug'iladi, muayyan qadriyatlarining paydo bo'lish va yoyilish holati yuz beradi»[6].

Jahondagi barcha mamlakatlar singari bizning yurtimizda ham globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi oqibatida yuzaga keladigan qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar ham shunday ta'sirlardan xoli bo'la olmaydi, albatta. Amerkalik Olim S.Xantington esa milliy va madaniy o'zlikni anglashning o'ziga xos xususiyatlarini, bu jarayondagi yuksalish va pasayish holatlari bilan bog'liq masalalarni o'z mamlakati misolida «Sivilizatsiyalar to'qnashuvi»[8] asarida tahlil qiladi. Muallif ta'kidlaganidek, «bu asarni yozishdan maqsad insoniyat oldida turgan ulkan muammo - sivilizatsiyalar to'qnashuvi xavfidan ogohlantirish emas, balki, suronli dunyodagi aksiologik voqelikni yangicha baholash hamda kelajakda insoniyat sivilizatsiyasi rivojini oldindan bashorat qilishga urinishdir»[7]. Ammo asarni atroflicha o'rganish natijasida muallifning asl maqsadi aytgan fikridan farqlanishini, uni «o'zi yashayotgan G'arb olami muammolari tashvishiga solayotganini anglash» qiyin emas.

Aksiologik jihatdan ulkan ahamiyat kasb etadigan voqelikni ma'naviy jihatdan o'zlashtirish hamda muayyan jamiyat hayotida bunday aloqadorlikni ta'minlash masalasi ham soha mutaxassislaridan ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Ayni vaqtda aksiologik omillar va qadriyatlar sohasi yangi

ijtimoiy-aksiologik qadriyatlarini yaratish, tatbiq qilish va uyg'unlashtirish uchun turtki beradi.

«Aksiologiya qonuniyatlari» tushunchasi «qadriyatlar sohasi» kategoriyasining ko'pgina zaruriy xususiyatlarini aks ettiribgina qolmay, bu sohaga taalluqli ijtimoiy, iqtisodiy va aksiologik jihatlarni ham amaliy faoliyatida qamrab oladi.

Shuni aytish kerakki, «aksiologiya qonuniyatlari» tushunchasiga ta'rif berishda tadqiqotchilar turli jihatlardan yondashgan holda fikr bildirsalarda, mavzuni asosan ikki xil – diniy va dunyoviy dunyoqarash asosida tadqiq qilish ustunlik qiladi. Diniy jihatdagi yondashuvda aksiologiya qonuniyatlari ilohiyotga bog'lib, dunyoning qaysidir mintaqalarida aksiologiya qonuniyatlarini o'sha yerga tarqalgan din yoki dinlarning o'zaro joylashuvi va amaliyoti yaratadi, deb tushuntiriladi.

Bunday yondashuvda aksiologiya qonuniyatlari faqat kishilarning orzu-istaklari, xayol va tasavvurlari, ichki kechinmalari emas, Yaratganning irodasi, o'tganlarning xotirasi, diniy an'ana, qadriyatlarini aks ettirishi ta'kidlanadi. Qisqacha aytganda, ilohiy tamoyillar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jamiyat va davlatning qadriyatlar sohasidagi o'rni katta bo'lib, ijtimoiy-aksiologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan faoliyatida muhim omillardan hisoblanadi. Shuning uchun davlatning bu sohadagi siyosatida fuqarolar faolligini oshirish, ularni bir maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladigan jihatlarga ustuvor e'tibor qaratiladi.

Aksiologiya qonuniyatlariga dunyoviy jihatdan yondashuvda esa ma'lum bir davrda yashaydigan insonlarning ma'naviy-axloqiy hayotining natijalari ifodasi, serqirra ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Aytilganlarning hammasi jamiyatdagi qadriyatlar sohasining ma'no-mazmuni hamda uning o'ziga xos tarkibiy qismlarini, shuningdek, ijtimoiy-aksiologik xususiyatlarini mukammal o'rganish uchun asos bo'ladi. Bunda avvalo, hodisaning ijtimoiy xususiyatlari namoyon bo'ladigan aksiologik, mafkuraviy, madaniy, g'oyaviy ta'sirlar ko'zda tutiladi. Shunday qilib, «aksiologiya qonuniyatlari» va «qadriyatlar sohasi» tushunchalarining mohiyat-mazmuni, o'zaro bog'liqligi namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, «Aksiologiya qonuniyatlari» tushunchasi «Qadriyatlar sohasi» kategoriyasining xususiyatlarini aks ettiribgina qolmay, bu sohaga taalluqli ijtimoiy, iqtisodiy va aksiologik jihatlarni ham amaliy faoliyatida qamrab oladi. Shu tarzda odamlar va jamiyat hayotining ma'naviy salohiyati, ijobiy barqarorligi va

tizimlilikiga erishiladi, bu jarayon samaradorligi natijasida qadriyatlar sohasining tub negizlari rivojlanadi. Natijada, jamiyat hayotining ma'naviy asoslari yanada mustahkamlanadi va aksiologiya qonunlari barqarorlashadi. Aksiologiya qonunlari jamiyatning muayyan qadriyatlar tizimi, xalqlarning hayotiy sharoitlari zaruriyatidan shakllanadigan, o'tmishi, buguni va kelajagi, madaniy merosi, milliy ruh, milliy til va muomala, yashash va tafakkur tarzi kabi umumiy jihatlari bilan tavsiflanadigan, o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladigan ijtimoiy-tarixiy mazmun va aksiologik mohiyatga ega bo'lgan tushunchadir. Aksiologiya qonunlari muayyan jamiyatning tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlashga, uning a'zolari ongiga o'ziga xos reallik sifatida, rang-barang tarzida ta'sir qiladi. U jamiyatdagi yashovchi insonlarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko'zga tashlanib, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun muayyan qonunlar sifatida namoyon bo'ladi.

Aksiologiya qonunlari, turli shakllarda namoyon bo'lib, jamiyatdagi yashash talablari, qonun-qoidalarini, inson hayotining mazmuni, mezonining ahamiyatini saqlab qoladi. Qadriyatlar sohasiga xos aksiologik qonunlarga tayanilgan va ular ushbu soha mutaxassislariga uchun metodologik konseptual tizim hosil qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi: a) aksiologiya qonunlarida ma'naviy va moddiy jihatlarning uyg'unligi; b) aksiologiya qonunlarining ijtimoiy voqeilik bilan dialektik bog'liqligi; v) aksiologiya qonunlari namoyon bolishining jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorligi.

Ijtimoiy-falsafiy fanlar nuqtai nazaridan aksiologiya qonunlarining jamiyat taraqqiyoti natijasidagi rivojlanishi sifat va miqdor jihatidan o'zgarishlar tarzida tavsiflanadi. Jamiyat aksiologiya qonunlarining qiyofasi muayyan jarayondagi uyg'unlik va o'zgarishlar yangilanishlarga ta'sir ko'rsatib, jamiyat rivojidadagi fan, madaniyat, adabiyot, san'at bilan bog'liq sohalar xususiyatlarining rivojida namoyon bo'ladi hamda jamiyat sohalaridagi jarayonlarning mazmun-mohiyatini boyitib boradi.

Yangi O'zbekistonda xalqimiz hayotining barcha sohalaridagi o'zgarishlar kabi aksiologiya qonunlari amaliyotida ham ko'plab yangilanishlar va islohotlarni amalga oshirish imkonini yaratmoqda, aholi ongi va tafakkurining o'sishi, hayotiy turmush tarzining tubdan o'zgarishiga turtki bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yolumizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz – Toshkent: O'zbekiston, 2017. 1-tom.
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/01/year-2024/>
3. Nazarov Q., To'xtayev X. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. Darslik. - Toshkent: Universitet, 2022.
4. Falsafa: izohli lug'at. – Toshkent: O'zFA Falsafa va huquq instituti, 2008.
5. Nazarov Q. Aksiologiya. – Toshkent: A.Qodiriy nomli nashriyot, 1994.
6. Tursunov A. Jamiyatimiz taraqqiyoti va ma'naviy – ma'rifiy islohotlar. // Milliy g'oya – bizning g'oya (Matn) / - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016.
7. Samuel P. Huntington. The clash of civilizations and the remaking of world order. - New York, 1996.